



Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rezilyentligini shakllantirish tamoyillari

Madaminova Dilnoza Bohodirjon qizi –

Farg'ona viloyati Farg'ona shahri

Al-Xorazmiy xalqaro xususiy maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

E-mail: dil97jas98@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rezilyentligini shakllantirish tamoyillari nazariy-pedagogik jihatdan yoritilgan. Kasbiy rezilyentlik pedagogik faoliyatdagi o'zgarishlar, noaniqliklar, texnologik muammolar, axborot yuklamasi va kasbiy qiyinchiliklarga ongli ravishda moslashish, mavjud shaxsiy hamda ijtimoiy resurslardan foydalanish, faoliyat samaradorligini tiklash va kasbiy rivojlanishni davom ettirishga xizmat qiluvchi integrativ sifat sifatida izohlangan. Kasbiy rezilyentlik muammolilik, subyektivlik, refleksivlik, hamkorlik, raqamli xavfsizlik, emotsional-ekologik muvozanat, pedagogik qo'llab-quvvatlash, nazariya va amaliyot birligi hamda diagnostik teskari aloqa tamoyillari o'zaro bog'langan tizim sifatida asoslangan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy rezilyentlik, pedagogik tamoyil, raqamli kompetensiya, adaptivlik, refleksiya, kasbiy barqarorlik, pedagogik qo'llab-quvvatlash, raqamli xavfsizlik.

Принципы формирования профессиональной резильентности будущих учителей в условиях цифрового образования

Аннотация. В статье с теоретико-педагогической точки зрения раскрыты принципы формирования профессиональной резильентности будущих учителей в условиях цифрового образования. Профессиональная резильентность рассматривается как интегративное качество, обеспечивающее осознанную адаптацию к изменениям, неопределённости, технологическим проблемам, информационной нагрузке и профессиональным трудностям в педагогической деятельности, использование имеющихся личностных и социальных ресурсов, восстановление эффективности деятельности и продолжение профессионального развития. Формирование профессиональной резильентности обосновано как взаимосвязанная система принципов проблемности, субъектности, рефлексивности, сотрудничества, цифровой безопасности, эмоционально-экологического равновесия, педагогической поддержки, единства теории и практики, а также диагностической обратной связи.

Ключевые слова: цифровое образование, будущий учитель, профессиональная резильентность, педагогический принцип, цифровая компетентность,

адаптивность, рефлексия, профессиональная устойчивость, педагогическая поддержка, цифровая безопасность.

Principles of developing professional resilience in future teachers in the context of digital education

Annotation. This article provides a theoretical and pedagogical analysis of the principles for developing the professional resilience of future teachers in digital education. Professional resilience is interpreted as an integrative quality that enables conscious adaptation to changes, uncertainty, technological challenges, information overload and professional difficulties encountered in pedagogical practice. It also involves the use of available personal and social resources, the restoration of professional effectiveness and the continuation of professional development. The development of professional resilience is substantiated as an interconnected system comprising the principles of problem orientation, learner agency, reflection, collaboration, digital safety, emotional and ecological balance, pedagogical support, the integration of theory and practice, and diagnostic feedback.

Keywords: digital education, future teacher, professional resilience, pedagogical principle, digital competence, adaptability, reflection, professional stability, pedagogical support, digital safety.

KIRISH

Ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasi o'qituvchining kasbiy vazifalari, pedagogik muloqot shakllari, ta'lim resurslaridan foydalanish usullari va natijalarni baholash mexanizmlarini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Elektron ta'lim platformalari, masofaviy mashg'ulotlar, virtual sinflar, sun'iy intellektga asoslangan vositalar, avtomatlashtirilgan baholash tizimlari va raqamli o'quv resurslari pedagogik faoliyatning kundalik tarkibiy qismiga aylanmoqda. Raqamlashtirish ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, individual o'quv trayektoriyalarini tuzishga yordam beradi, pedagogik axborotga tezkor kirishni ta'minlaydi va ta'lim jarayonini boshqarish samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, mazkur jarayon o'qituvchi zimmasiga yangi talablarni yuklaydi. Texnologik vositalarning tez yangilanishi, platformalarning ko'pligi, axborot yuklamasi, texnik uzilishlar, raqamli muloqotdagi hissiy masofa, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish zarurati va sun'iy intellekt natijalarini tanqidiy baholash ehtiyoji pedagog faoliyatida yangi turdagi qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Raqamli ta'lim sharoitida o'qituvchidan texnik ko'nikmalar bilan bir qatorda tez o'zgaradigan vaziyatga moslashish, noaniqlikda qaror qabul qilish, muvaffaqiyatsiz tajribadan keyin faoliyatini tiklash, yordam resurslarini topish va kasbiy rivojlanishni davom ettirish talab qilinadi. Ushbu qobiliyatlar kasbiy rezilyentlik tushunchasi orqali ifodalanadi. Kasbiy rezilyentlik o'qituvchining qiyinchilikni anglash, unga mos strategiyani tanlash, hissiy holatini boshqarish, hamkasblar ko'magidan foydalanish, pedagogik maqsadni saqlash va orttirilgan tajriba asosida faoliyatini yangilash qobiliyatidir. Talabaga raqamli platformadan foydalanish tartibini o'rgatish uning texnologik nosozlik, kutilmagan o'zgarish, axborot bosimi yoki raqamli muloqotdagi ziddiyatga tayyorligini avtomatik ravishda ta'minlamaydi. Shu sababli pedagogik ta'lim jarayoni kasbiy rezilyentlikni rivojlantiruvchi ilmiy asoslangan tamoyillarga tayanishi zarur.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Raqamli transformatsiya muhitida pedagogning muvaffaqiyati uning texnologik yangilanishlarga moslashish, noaniq vaziyatda qaror qabul qilish, axborot oqimini

boshqarish, kasbiy qiyinchiliklardan keyin faoliyat samaradorligini tiklash va yangi tajribani o'zlashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik faoliyatda texnik nosozliklar, internet aloqasidagi uzilishlar, raqamli resurslarning tez yangilanishi, platformalar o'rtasidagi farqlar va sun'iy intellekt yaratgan ma'lumotlarning ishonchligini tekshirish zarurati uchrab turadi. Bunday vaziyatlar o'qituvchining rejalashtirilgan faoliyatiga ta'sir qiladi. Kasbiy rezilyentligi rivojlangan pedagog mavjud sharoitni tez baholaydi, muqobil usul tanlaydi, o'quv maqsadini saqlab qoladi va faoliyatini qayta tashkil etadi. Shu sababli rezilyentlik raqamli davr o'qituvchisining tayanch kasbiy sifatlaridan biri sifatida qaralishi kerak. D.Najmiddinovning ta'kidlashicha "Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritishdir. Bunday o'zgarishlar bo'lajak o'qituvchini yangi metodlarni o'zlashtirish, kasbiy faoliyatini qayta tashkil etish va muammolarga mos yechim topishga tayyorlaydi"[4]. Pedagogning raqamli muhitdagi kasbiy barqarorligi hamkorlik va texnologik tayyorgarlik bilan bog'liq. Raqamli ta'limda kasbiy rezilyentlikni shakllantirish pedagogik faoliyatni yangilash bilan uzviy bog'liq. Bo'lajak o'qituvchining kasbiy rezilyentligini rivojlantirishda o'z tajribasini tahlil qilish, xatolar sababini aniqlash va keyingi faoliyatini takomillashtirish muhimdir. N.Saidovanning ta'kidlashicha, "Bo'lajak o'qituvchilar o'z tajribalarini baholashlari va xatolaridan saboq olishlari kerak"[5]. Ushbu fikr refleksiyaning kasbiy qiyinchilikni rivojlanish tajribasiga aylantiruvchi vosita sifatida baholashga imkon beradi.

Kasbiy rezilyentlikni shakllantirishda talabaning yangiliklarni o'rganishga bo'lgan qiziqishi va qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhiti katta ahamiyatga ega. D.U.Choriyeva bu haqda "Innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda motivatsion omillar katta ahamiyatga ega"[1], deb yozadi. Motivatsion muhit bo'lajak o'qituvchining qiyinchiliklarga faol munosabat bildirishiga va kasbiy rivojlanishni davom ettirishiga yordam beradi. "Kasbiy rezilyentlik pedagog va kasbiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni sifatida rivojlanadi. O'qituvchi rezilyentligi pedagog bilan uning kundalik murakkab kasbiy vaziyatlari o'rtasidagi dialektik munosabat ekanini anglatadi"[7].

Ushbu tahliliy fikrlarga tayanib, kasbiy rezilyentlikni shakllantirish tamoyillarini quyidagilar deb belgiladik.

1. Kasbiy yo'naltirilganlik tamoyili
2. Uzluksizlik va izchillik tamoyili
3. Adaptivlik va moslashuvchanlik tamoyili
4. Muammolilik va kasbiy sinov tamoyili
5. Subyektilik va mustaqil tanlov tamoyili
6. Refleksivlik tamoyili
7. Hamkorlik va kasbiy hamjamiyat tamoyili
8. Nazariya va pedagogik amaliyot birligi tamoyili

"Bo'lajak o'qituvchining kasbiy qiyinchiliklarni yengishida ijtimoiy yordam muhim resurs hisoblanadi. Mentor, guruhdosh va hamkasblar ko'magi rezilyentlikni shakllantiruvchi pedagogik shartlardan biridir"[2]. Kasbiy rezilyentlik bo'lajak o'qituvchining murakkab vaziyatni tahlil qilishi, hissiy holatini boshqarishi, zarur resurslarni aniqlashi, yordam so'rashi, qaror oqibatlarini baholashi va tajribadan kasbiy rivojlanish uchun foydalanishini ifodalaydi. Rezilyent pedagog qiyinchilikni inkor etmaydi. U muammoning sabablarini aniqlaydi, hal etish yo'llarini ishlab chiqadi va erishilgan natijaga refleksiv munosabat bildiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Aniqlangan tamoyillarni bir-biridan ajratilgan holda qo'llash kasbiy rezilyentlikning ayrim jihatlarini rivojlantirishi mumkin. Barqaror natija ularning yagona pedagogik tizim sifatida ishlashiga bog'liq. Olingan natijalar kasbiy rezilyentlikni raqamli kompetensiyadan alohida shakllantirish maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatadi. Raqamli kompetensiya

pedagogning texnologik vositalardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Rezilyentlik esa texnologiya ishlamagan, vaziyat o'zgargan yoki kutilmagan muammo yuzaga kelgan paytda ushbu imkoniyatlardan moslashuvchan foydalanishni ta'minlaydi.

O'zbekiston ta'lim tizimida pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lim dasturlarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va ta'lim, ilm-fan hamda amaliyot integratsiyasini kuchaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. 2022-yildagi PQ-289-son qarorda pedagogik ta'limni tizimli rivojlantirish va ilg'or tajribalarni joriy etish masalalariga e'tibor qaratilgan. Ushbu vazifalar kasbiy rezilyentlik tamoyillarini pedagogika oliy ta'lim muassasalari dasturlariga kiritish uchun me'yoriy-pedagogik asos yaratadi. Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchining kasbiy rezilyentligi pedagogik faoliyatning barqarorligi va ta'lim sifatini ta'minlovchi muhim integrativ sifatdir. U texnologik vositalarni bilish, murakkab vaziyatni tahlil qilish, o'zgarishga moslashish, hissiy holatni boshqarish, ijtimoiy resurslardan foydalanish, kasbiy qaror qabul qilish va o'z tajribasini refleksiv baholash qobiliyatlari birligida namoyon bo'ladi.

Raqamli ta'lim muhitida kasbiy rezilyentlikning mazmuni yanada kengayadi. O'qituvchi axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli muloqot etikasi, mualliflik huquqi va sun'iy intellektdan mas'uliyatli foydalanish talablarini bilishi zarur. Belgilab olgan kasbiy rezilyentlikni shakllantirish tamoyillarini muhokama qilsa, kasbiy yo'naltirilganlik tamoyili raqamli topshiriqlarni bo'lajak o'qituvchining real kasbiy vazifalari bilan bog'lashni talab qiladi. Talaba darsni rejalashtirish, o'quvchini faollashtirish, natijani baholash, ota-onalar bilan aloqa o'rnatish yoki inklyuziv ta'limni tashkil etish uchun foydalanishni o'rganadi. Mazkur tamoyilning natijasi talabaning texnologik bilimni kasbiy vaziyatga ko'chira olishida ko'rinadi. Uzlaksizlik va izchillik tamoyiliga ko'ra, kasbiy rezilyentlik bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning barcha bosqichlarida o'zaro bog'langan va bosqichma-bosqich murakkablashib boradigan pedagogik faoliyat orqali muntazam rivojlantirilishi zarur. Birinchi bosqichda talabalar kasbiy rezilyentlik mohiyati va shaxsiy resurslarini o'rganadi. Keyingi bosqichda sodda muammoli vaziyatlarni hal qiladi. Yuqori kurslarda murakkab keyslar, raqamli loyihalar va pedagogik amaliyot orqali o'z strategiyalarini sinovdan o'tkazadi. Izchillik tamoyili o'quv topshiriqlarining oddiydan murakkabga, o'qituvchi rahbarligidan mustaqil faoliyatga tomon rivojlanishini talab qiladi.

Adaptivlik va moslashuvchanlik tamoyili raqamli ta'lim muhitidagi tezkor o'zgarishlarga muvofiq pedagogik faoliyat mazmuni, metodlari va vositalarini qayta tashkil etish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Bugun samarali hisoblangan platforma yoki dastur qisqa vaqt ichida yangilanishi mumkin. Shu sababli talabaning bitta vositani mukammal bilishidan ko'ra, yangi vositani mustaqil o'rganish va pedagogik vazifaga moslashtirish qobiliyati muhimroqdir. Muammolilik va kasbiy sinov tamoyili bo'lajak o'qituvchilarni real pedagogik faoliyatga yaqin, nazorat qilinadigan hamda xavfsiz muammoli vaziyatlarga jalb etishni nazarda tutadi. Bunday topshiriqlar talabalarda kasbiy qiyinchiliklarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va maqbul yechim topish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kasbiy sinov talabaga qiyinchilikni oldindan ko'rish, vaziyatni tahlil qilish, resurslarni aniqlash, qaror qabul qilish va natijani baholash imkonini beradi. Subyektivlik va mustaqil tanlov tamoyiliga ko'ra, talaba o'z kasbiy rivojlanishini ongli ravishda boshqaruvchi faol subyekt sifatida ishtirok etadi. Pedagogik vaziyatlarda mustaqil tanlov qilish va qaror qabul qilish tajribasi uning shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirib, o'z kasbiy imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. O'qituvchi bu jarayonda maslahat beruvchi va rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi fasilitator vazifasini bajaradi. Refleksivlik tamoyilida tajriba xulosaga aylantirilganida va yangi vaziyat uchun strategiya ishlab chiqilganida pedagogik qiymat kasb etadi. Hamkorlik va kasbiy hamjamiyat tamoyiliga ko'ra, hamkasblar, mentorlar, metodistlar hamda ta'lim muassasasi tomonidan ko'rsatiladigan yordam o'qituvchining kasbiy qiyinchiliklarni yengishiga va rezilyentligini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kasbiy rezilyentlik haqidagi nazariy bilim

pedagogik amaliyotda sinovdan o'tkazilganda barqaror kasbiy tajribaga aylanadi. Shu sababli oliy ta'lim mashg'ulotlari maktabdagi real faoliyat bilan bog'lanishi zarur.

XULOSA

Raqamli ta'lim sharoitida kasbiy rezilyentlikni shakllantirish uzluksiz pedagogik jarayon sifatida tashkil qilinishi lozim. Uning elementlari pedagogika, o'qitish metodikasi, raqamli ta'lim texnologiyalari, pedagogik mahorat fanlari va malakaviy amaliyot mazmuniga integratsiya qilinishi kerak. "Raqamli texnologiyalar o'qituvchiga o'quv materiallarini pedagogik ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi. Texnologiya o'qituvchilarga ta'lim materiallarini tanlash, o'zgartirish va yaratish imkonini beradi. Bu imkoniyat bo'lajak o'qituvchining yangi sharoitlarga moslashuvchanligini rivojlantiradi"[6]. Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchining kasbiy barqarorligi individual tayyorgarlik bilan bir qatorda hamkorlikdagi faoliyat orqali ham rivojlanadi. Sh.M.Merganovning fikricha, "Klasterli yondashuv ta'lim jarayonida o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlash"[3] imkonini beradi. Bunday hamkorlik talabaning yordam so'rash, tajriba almashish va pedagogik muammoni birgalikda hal qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rezilyentligini shakllantirishda pedagogik ta'lim mazmuni alohida o'rin tutadi. Talabalar murakkab pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil qarorlar ishlab chiqish, raqamli dars ssenariylarini sinovdan o'tkazish va faoliyat natijalarini baholash tajribasiga ega bo'lishlari kerak. Shu asosda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida raqamli jihatdan kompetent, kasbiy mas'uliyatli, refleksiv, o'zgarishlarga moslasha oladigan va murakkab pedagogik vaziyatlarda samarali faoliyat yuritadigan o'qituvchilarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Choriyeva D. U. "Texnologiya" fani o'qituvchilarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashning didaktik shart-sharoitlari // ACUMEN: International Journal of Multidisciplinary Research. – 2025. – Vol. 2, No. 3. – P. 43-47.
2. Fokkens-Bruinsma M., Tigelaar E. H., van Rijswijk M. M., Jansen E. P. W. A. Preservice teachers' resilience during times of COVID-19 // Teachers and Teaching. – 2023. – Vol. 29, No. 8. – P. 1083-1096.
3. Merganov S. M. Klasterli yondashuv va uning ilmiy ahamiyati // Pedagogics International Research Journal. – 2025. – Vol. 82, No. 2. – P. 35-39.
4. Najmiddinov D. R. Ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati // Informatika va muhandislik texnologiyalari. – 2023. – Vol. 1, No. 2. – P. 361-362.
5. Saidova N. Innovatsion pedagogik texnologiyalar orqali bo'lajak o'qituvchilarning loyihaviy tafakkurini rivojlantirish // Yangi O'zbekiston ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2025. – Vol. 2, No. 4. – P. 83-86.
6. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education – A Tool on Whose Terms? – Paris: UNESCO, 2023.
7. Vallés A., Clarà M. Conceptualizing teacher resilience: A comprehensive framework to articulate the research field // Teachers and Teaching. – 2023. – Vol. 29, No. 1. – P. 105-117.